



SHEVALARDA OLMOSH SO'Z TURKUMINING QO'LLANISHI (QIPCHOQ LAHJASI MISOLIDA).

Ziyodullayeva Baxtiniso

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada har xil hududiy shevalar olmoshlarni qo'llashda o'zaro farqlar ko'rsatiladi, bu farqlar hududiy, ijtimoiy va etnik xususiyatlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu strukturaga asoslanib, turli shevalardagi olmoshlar qo'llanishini chuqurroq tushunish va o'rganish mumkin. Har bir qism muayyan sheva yoki lahjaga xos bo'lgan xususiyatlarni aks ettiradi va bu tilshunoslikka oid tahlillarning muhim qismlaridir. Shevalarda olmoshlar yozilishi va talaffuzi, grammatik strukturalari hamda ma'no jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'z: Hududiy shevalar, olmoshlar, adabiy til, olmoshlar farqi, grammatik ma'no, talaffuz, sheva, lahja, fonetik o'zgarishlar.

Shevalarda olmoshlar qo'llanilishida tilning mahalliy xususiyatlari va nutq uslubining tabiiy o'zgaruvchanligini aks ettirishi mumkin. Sheva matnlarida tilning boy va rang-barang ko'rinishini namoyish etadi va olmoshlar ushbu xilma-xillikning muhim qismidir. Olmoshlarning qo'llanishi notiqlik, tabiiylik va mahalliy jamoaning madaniyati va an'analari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Shevalar odamlar o'rtasidagi muloqotning ijtimoiy-madaniy dinamikasini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Olmoshlarning shevalardagi qo'llanishida adabiy tildagidan farqli holatlari mavjud. Bu farqlar tilning morfologil, fonetik va sintaktik tuzilishida namoyon bo'ladi. Kishilik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik o'zgarish bilan shevalarda qo'llanadi, ya'ni o'g'uz va shahar shevalarida men ~män, sen~sän variantida keladi. Qipchoq lahjasi shevalarida III shaxsda u~o, ul~ul, ol~ol variantlarida uchraydi. Ko'rsatish olmoshining shu~sho~šo (qipchoq), o'sha~oshi~oši (Turkiston), mana shu~mashi~mäši (Toshkent), ana shu~ashi~äši (Farg'ona) kabi shakllari mavjud. Adabiy tildagi u, bu, shu olmoshlari shimoliy o'zbek shevalarida ul~ul, bul~bul, shul~šul shakllarida qo'llanadi¹. Surxondaryo shevalari korpusida esa olmoshlarning quyidagi holatini prognoz qilingan:

1. Kishilik (mayan, sayan, maņa, saņa, uņa,): *Mänä jendi qāriganimda, Jelbektin şu nasxatlarini qājtarib-qājtarib ājtganim-ājtkan.// Ündan nāri Sāmarqandu Buxārā, Xārazm, şunnāj töyri Surxāni azim².*

2. Ko'rsatish (ül, bül, šül, šüjtip, shunday qilib qo'shma fe'l tarkibida)

¹ Samixon A. O'zbek dialektologiyasi //O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – 2016.

² <https://dialectcorpora.uz/#qipchoq|doston|Alpomish> dostonidan parcha, 2023-2024



3. O'zlik (ʷoz, ʷöz, ʷos, oz, öz, os)
4. Belgilash (xämmä, bari, ʒalpi, barča, ʒäppa, xar qāndaqa, xar qājsi)
5. So'roq (ne, na, qāndaqa, qānnaj, qāy, qāysì, neja, qìjaqqa, qjaxka,)
6. Gumon (*palanči, palan-pistan, nàdir, nerdadir, allamvāx* – qachongachadir)
7. Bo'lishsizlik (*xištima – hech nima, xiškim, xišvāx, xiškim*³)

Xulosa qilib aytganimizda shevalarda olmoshlar yozishilishi va talaffuzi , grammatik strukturalari hamda ma'no jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shevalarda olmoshlar qo'llanishini tahlil qilishda asosan tilshunoslar, dialektologlar, lingvistil antropologlar va boshqa tilshunoslik bilan bog'liq mutaxassislar ishtiroq etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samixon A. O'zbek dialektologiyasi //O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – 2016.
2. Mirzayev . M. M O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2000.
3. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma'lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) //Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т.
4. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.
5. <https://dialect.uz/>
6. <https://dialectcorpora.uz/#>

³ Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.